

TALABALARNING LOYIHALASH-KONSTRUKSIYALASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI

Assistenti Qodirov Najmiddin Elmirza o'g'li

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar inistituti

“Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalari” kafedrası

Annatsiya:

O'z-o'zini rivojlantirish insonning yangi bilim va ko'nikmalarga, o'zgarishlarga muhtojligini anglashdan boshlanadi, bu esa talaba shaxsiyatida ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyani uyg'otadi. Motivatsiya – Shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo'luvchi ichki turtki hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Talim, loyihalash-konstruksiyalash, kasbiy, o'z-o'zini rivojlantirish, motivatsiya

Kashfiyotchilarning ijodiy ishlarini tahlil qilgan holda, konstruksiyalash jarayonida g'oyalarni konstruktiv ifodalashning muhimligini anglatadi. G'oyalarni konstruktiv ifodalash konstruktor ishining barcha bosqichlarida hamrohlik qiladi. Biz ham talabalarda loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyasini rivojlantirishni bir nechta bosqichlarga bo'lib o'rganamiz.

Bo'lajak muhandislarni loyihalash-konstruksiyalash jarayonini tadqiq qilish natijalari bo'yicha faoliyat turiga motivatsion, kognitiv, faoliyatli tayyorgarlikni shakllantirish mantig'ida quyidagi bosqichlar ajratib olindi:


- analitik-dagnostik;
- motivatsion-mo'ljalli;
- maqsadli-tashxisli;
- kasbiy-izlanuvchilik;
- refleksiv-baholash (yakuniy).

Tadqiqot maqsadi va vazifalariga muvofiq sanab o'tilgan bosqichlarni loyihalash-konstruksiyalash faoliyatga tayyorlash mazmuni, texnologiyasi, vositasi, shakllarini ko'rsatgan holda tavsiflaymiz.

Ta'limda o'z-o'zini rivojlantirishning yagona usuli yo'q. Har bir talaba individual maqsadlari asosida o'zini rivojlantirishning yo'nalishi, bosqichlari va usullarini



mustaqil ravishda belgilashi mumkin. Biz kredit-modul tizimi jarayonida talabalarning individual o'z-o'zini rivojlantirishni tashkil etishning eng keng tarqalgan quyidagi bosqichlarini e'tirof etamiz (1.5-rasm):



Talabalarda loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari Kredit-modul tizimi jarayonida talabalarning individual o'z-o'zini rivojlantirishni tashkil etish bosqichlari:

1. Analitik-dagnostik bosqichi. Birinchi bosqichda talabalarning boshlang'ich holati, Ya'ni ayni vaqtdagi BMK darajasi, ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklari, ehtiyojlari, qiziqishlari, subyektiv pozitsiyasi, intellektual-ijodiy faoliyatining individual uslubi va o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Buning uchun kompleks tashxis o'tkaziladi. Tashxis anketa, test, suhbat metodlaridan foydalanib o'tkaziladi. Shu o'rinda, alohida ta'kidlash lozimki, talabalarning o'z-o'zini tashxislash, o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholay olish tajribasi hamda shaxsiy salohiyati, ta'lim ehtiyojlari, imkoniyatlari chegarasini anglashi va turg'un motivga ega bo'lishi juda ham muhim. Chunki, talabalar o'zini anglashi orqaligina faoliyatidan ko'zlangan maqsad hamda vazifalariga erishish vektorini ko'ra olishi mumkin.

2. Motivatsion bosqich. Talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish muammosini tahlil etish shuni ko'rsatdiki, og'irlik markazini talabalarga tayyor bilimlarni uzatishdan talabalarning individual faoliyat asosida o'z-o'zini rivojlantirishga, ularda bilim, malaka va ko'nikamarni mustaqil egallash ko'nikmalarini shakllantirishga ko'chirish zarur ekan. O'z-o'zini rivojlantirish insonning yangi bilim va ko'nikmalarga, o'zgarishlarga muhtojligini anglashdan boshlanadi, bu esa talaba shaxsiyatida ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyani uyg'otadi. **Motivatsiya** – Shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo'luvchi ichki turtki hisoblanadi. Motivatsiya ehtiyoj negizida vujudga keladi va shakllanadi. Ehtiyojning barqarorlashuvi motivatsiyaning samarali shakllanishini ta'minlaydi.

Motivatsion bosqich individual faoliyatning namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi, maqsadni aniqlash va unga erishishga e'tibor beradi, talabaning individual faoliyati orqali o'z-o'zini rivojlantirish rejasining shakllantirishiga yordam beradi. Motivatsion bosqich talabalarning individual faoliyatini amalga oshirish uchun tayyorlashga asoslanadi.

3. Motivatsion-mo'ljalli bosqichi. talabalarning O'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan individual faoliyatining mazmuniga, o'quv vositalariga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatuvchi, o'qituvchi bilan birgalikda intiladigan umumlashtirilgan ideal natija bo'lgan maqsadini anglash va belgilashni nazarda tutadi. Maqsadni belgilash jarayonining yanada muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'qituvchi talabalar bilan birgalikda fan sohasini o'rganishning umumiy maqsadini belgilab, fanlarning mazmunini muhokama qiladi. Maqsadlarni belgilash bosqichida Diagnostika bosqichida aniqlangan BMK darajasi, ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklari, ehtiyojlari, qiziqishlari, subyektiv pozitsiyasi, intellektual-ijodiy faoliyatining individual uslubi va o'ziga xos xususiyatlari natijalariga asoslanib, talaba fan (kurs, modul yoki mavzu)ni, o'rganish davri uchun istiqbolli shaxsiy va kasbiy maqsadni belgilaydi. Maqsadga erishishning mumkin bo'lgan usullari haqida taxminlar qiladi.

Maqsadli-tashxisli bosqichi diagnostika va motivatsion bosqichlari bilan chambarchas bog'liq holda olib boriladi, ya'ni, dastlabki diagnostika natijalarini 60812300 – Suv xo'jaligi va melioratsiya ta'lim yo'nalishining kasbiy faoliyat sohalaridan kelib chiqqan holda quyidagi o'z-o'zini kasbiy rivojlantirishga kiritish taklif etiladi. Talabalarga o'qituvchi bilan birgalikda erishilgan natijalarni muhokama qilishga imkon beradi.

O'z-o'zini kasbiy rivojlantirish orqali quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- individual faoliyatini tahlil qilish asosida yutuq va kamchiliklarini aniqlash;
- yutuqlarini boyitish va kamchiliklarni bartaraf etish;
- individual rivojlantirish dasturi faoliyatini samarali tashkil etish vazifalarini belgilash;
- qabul qilingan qarorning izchil bajarilishini **kasbiy rivojlanish shkalasi** orqali doimiy nazorat qilib borish.

4. Kasbiy-izlanuvchilik bosqichi. diagnostika natijalari, belgilangan maqsadlar va talabning keyingi kasbiy faoliyati haqidagi g'oyalari asosida amalga oshiriladi. Talabalar o'quv faoliyatini tashkil etish orqali shaxsning kasbiy muhim fazilatlarini takomillashtirishning individual xususiyatlarini, yo'llarini, vositalarini ishlab chiqish bo'yicha "Individual rivojlantirish dasturi" ishlab chiqadilar.

Individual rivojlanish dasturi– har bir shaxs yoki mutaxassisning o'zida ma'lum sifat, "bilim, malaka, ko'nikma", kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur. Ushbu dasturda kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo'lgan "bilim, malaka, ko'nikma" hamda kasbiy kompetensiya sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muddatlari belgilanadi. Bunda talabning "bilim, malaka, ko'nikma"lari ta'lim yo'nalishining malaka talablarida keltirilgan kasbiy faoliyat sohalari asosida belgilab olinadi.

Individual rivojlanish quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- individual faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

Tadqiqotimizda 60812300 – Suv xo'jaligi va melioratsiya ta'lim yo'nalishi kasbiy faoliyati sohalari asosida ishlab chiqilgan individual rivojlantirish dasturining tarkibiy elementlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31-dekabrdagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 824-son Qarori.
3. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2020 y.

4. Тимофеев А.А., Н.А. Ушко, М.А. Ярифа. Кредитно-модульная система обучения. Журнал Современная стоматология, 1/2013, стр:134.
5. Уразгалиева Р.И. «Кредитно-модульная система организации обучения как фактор формирования умений самообразовательной деятельности студента». Автореф. Дисс к.п.н., - Оренбург. - 2010.
6. Шамова, Т. И. Управление образовательными процессами Текст. / Т. И. Шамова, Т. М. Давыденко, Г. Н. Шибанова. М. : Академия, 2002. - 384 с.
7. O‘rinov V. “O‘zbekiston Respublikasi oily ta’lim muassasalarida ECTS kreditmodul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar”. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y.
8. Ibraimov X. I. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kredit-modul texnologiyalarini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi 209-215 b.
9. Кукосян, О. Г. Концепция модульной технологии обучения в системе дополнительного профессионального образования Текст. / О- Т. Кукосян, Г. Н. Князева. Краснодар, 2001. - 64 с.
10. Основы кредитной системы обучения в Казахстане Текст. / Под ред. Ж. А. Кулекеева, Г. Н. Гамарника, Б. Д. Абдрасилова. — Алматы : Казах, университет, 2004. 198 с.
11. Böttcher Wolfgang. Wissen, Kompetenz, Bildung, Erziehung oder was? Zur Diskussion um Standardisierung in der allgemeinbildenden Schule//Kompetenzentwicklung in der Beruflichen Bildung. Leske+Budrich, Opladen 2002.
12. Juceviciene P. A. Theoretical foundations of modular training: Dis. d RA PED. Sciences. Vilnius, 1990.
13. Зарипов Л.Р. Ўзбекистон олий таълим тизимида кредит-модуль тизими: муаммо ва ечимлар. Ўзбекистонда олий таълим. Илмий, ўқув-услубий, таҳлилий журнал. 2022 йил. № 3. 79-84 б.
14. Педагогика: Большая современная энциклопедия / Сост. Е.С. Рапацевич – Мн.: «Соврем. Слово», 2005. – 720 с. 7. Слостенин, В.А. Психология и педагогика / В.А. Слостенин, В.П. Каширин. – М., 2001. – 473 с.
15. Zaripov L. Kredit-modul tizimi asosida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi ahamiyati. Ta’lim, fan va innovatsiya, 1-son, 2023-yil, 24-28-b.